

MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OT AT-TURK" ASARI TURKIY LUG'ATSHUNOSLIKNING BEBAHO BOYLIGI

Nargiza Fayziyeva

*O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi huzuridagi
Harbiy musiqa akademik litsey o'qituvchisi. Tel: 998(93)5972807*

Annotatsiya: "Devonu lug'atit turk" asari eski turkiy tilning, turkiy lug'atchilikning tengi yo'q yodgorligidir. Mazkur asar bilan olim turkiy leksikografiya ilmining tamal toshini qo'yish bilan birga, bu sohani yuqori bosqichga olib chiqdi deb ayta olamiz. Qolaversa, Mahmud Koshg'ariy turkiy tilshunoslik rivojigagina emas, Sharq tilshunosligi, xususan, lug'atshunosligiga ham katta xissa qo'shgan desak to'g'ri bo'ladi. Muallif ushbu maqolada "Devonu lug'atit turk" asarining ana shunday uziga xos xususiyatlarini ochib bergan.

Kalit so'zlar: Turk so'zlari devoni, qomusiy olim, turkiy leksikografiya, turkiy til lahjalari, fiqh ilmi, hadis ilmi, turkiy sheva, turkiy lahja, matn, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, etnolingvistika, lingvokulturologik, qiyosiy tipologik, adabiy til.

XI asrda yashab ijod etgan buyuk bobokalonimiz Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'ot at-turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asari orqali dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan turkiy xalqlarning yirik tilshunos olimlaridan biridir.

Mahmud Qoshg'ariyning to'liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariy bo'lib, qomusiy olim, fiqh hamda hadis ilmining bilimdonidir. U 1029 yili Issiqko'lning janubi sharqiy qismida joylashgan Barsxon shahrida tug'ilgan. Ayrim manbalarda esa tug'ilgan sanasi noma'lum deyiladi. Mahmudning otasining ismi Husayn, bobosining ismi esa Muhammad bo'lib, kelib chiqish va tiliga ko'ra Koshg'ariy nisbatini olgan. U Qoraxoniylar davlatining poytaxti Bolasog'unda yashab ijod qilgan.

Mahmud o'z davrining madaniy markazlaridan biri bo'lgan Qoshg'arda dastlabki ta'limni olgan. Qoshg'ariy keyinchalik Samarqand, Buxoro, Nishopur va Marv shaharlarida o'qigan. Olim arab xalifaligining madaniy markazlaridan biri bo'lgan Bag'dodda arab tilshunosligi, adabiyoti, tarixi hamda tabiiy fanlar bo'yicha tahsil olgan.

Mahmud Balasog'unda tug'ilib, shu yerda yigitlik chog'larini kechirgan bo'lsa ham, uzoq yillar Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg'onistonga qadar cho'zilgan turkiy o'lkalarni, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini kezib chiqdi, turli sheva va lahja xususiyatlarini o'rgandi, ularni adabiy til bilan chog'ishtirdi, o'z ishi uchun nihoyatda boy material to'pladi.

"Men – deydi Mahmud Qoshg'ariy, turklar, turkmanlar, o'g'izlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim,

lugʻatlarini toʻpladim, turli xil soʻz xususiyatlarini oʻrganib chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Boʻlmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Turkiy til lahjalariga shunchalik diqqat qildimki, tillari butunlay dilimga jo boʻldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim. Bu kitob bir adabiy yodgorlik boʻlsin deb, Xudoga sigʻinib, uni yozdim. Kitobni –“Devonu lugʻat at-turk” [1.] (الترك لغات ديوان) – (Turkiy tillar lugʻati) – deb, atadim deydi.

Mahmud Koshgʻariy oʻzining uzoq yillar davomida bunyod etgan “Devoni lugʻat at-turk” kitobini hijriy 469-(1074/75) yilda tugallab, abbosiy xalifalar avlodidan boʻlgan baland mavqeli Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bagʻishlagan. Shuningdek, boshqa manbalarda esa Mahmud Koshgʻariy «Devonu lugʻat at-turk» asarini olim 1076-1077 yillarda tugallab, xalifa Abulqosim Abdulloh bin Muhammad al-Muqtadoga tuhfa etadi deyiladi.

“Devonu lugʻat at-turk” asarining bittagina qoʻlyozmasi maʼlum, u ham boʻlsa, dastlabki emas, keyingi davrga tegishli. Uni Muhammad bin Abu Bakr Damashqiy otlari kotib Shomda hijriy 664 yil, shavvol oyining yigirma yettinchi kuni (milodiy 1266 yil avgustining birinchisida), oʻzining [yaʼni, kotibning] yozishiga qaragana, Mahmud Qoshgʻariy oʻz qoʻli bilan yozgan qoʻlyozmadan koʻchirib tugallagan. Ushbu nodir qoʻlyozma hozir Istanbuldagi Millat kutubxonasida (Millet Genel Kutuphanesi. Kayit No. Ar. 4189) saqlanmoqda. Qoʻlyozma 320 varaq (639 sahifa)dan iborat. [2.]

“Devonu lugʻat at-turk” (الترك لغات ديوان) “Muqaddima”sida Mahmud Koshgʻariy turkiy tilli xalqlarning nomlarini birma-bir keltiradi. Ular: bajnak, qipchoq, ugʻuz, yamak, boshqird, basmil, qay, yaboqu, tatar, qirgʻiz, chigil, tuxsi, yagʻmo, igʻroq, jaru, jamul, uygʻur, tangut, tabgʻach xalqlaridir. Shuningdek, devonda ana shu turkiy xalqlar yashagan joylarni koʻrsatuvchi doira shaklidagi xarita ham keltirilgan.

Har betiga oʻn yetti qatordan qilib matn bitilgan. Xati chiroyli. Deyarli butun boshli matn qorada, oradagi bob va fasllarning sarlavhasi, boshlanishda turkiy misollar, shuningdek, sarlavha qilib berilgan harflar qirmizi rangda. Baʼzi sarlavhalar tuq qorada ajratib yozilgan. Matn boʻylab turkiy misollar qorada yozilib, ustidan qirmizi chiziq tortib qoʻyilgan. Asarning asosiy matni oʻsha davrda keng mintaqa musulmon Sharqida, butun Yaqin va Oʻrta Sharqda din, fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan. Biroq ushbu asarni turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan, deb eʼtirof etish mumkin.

Toʻgʻri oʻqilishini taʼminlash uchun turkiy misollarga harakatlar izchil qoʻyib borilgan. Lugʻatdagi soʻz-maqolalar oʻrtasi nuqtali yaproqsimon belgi bilan, misol-toʻrtliklarning qatorlari esa doirachalar bilan ajratilgan.

Muhimi, asarga Yer kurrasining xaritasi ham kiritilgan boʻlib, undagi togʻlar, choʻllar, suvlik va pasttekisliklar, shaharlar qirmizi, sariq, toʻq koʻk ranglarda ajratib

ko'rsatilgan. Kitobning sahifa ko'rsatkichlari ikki xil: birinchi sahifaning tepa qismiga arab raqamlarida ularning ko'rsatkichi qo'yib chiqilgan; ikkinchi tartib ko'rsatkichi esa har bir varaqning boshlanishida, matnning chap tomonida yangicha raqamlarda qo'yilgan. [3.]

Devonda turkiy xalqlar tarixiga oid qadimgi afsonalar va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol hamda matallar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan ortiq she'riy parchalar asar sahifalaridan o'rin olgan. She'riy parchalarning ko'p qismi turkiy xalqlar og'zaki ijodiga xos to'rtliklardan iborat. Biroq, "Devon"da keltirilgan she'riy satrlardan 150 satrga yaqini islom davri she'riyatiga xos bo'lgan "bayt" tipidagi masnaviy, qasida, g'azal, qit'a parchalari bo'lib, ularni Mahmud Qoshg'ariyning o'zi ham "bayt" deb atagan. Kitobda 7 ta epik doston, ishqiy qo'shiqlar, pandnomalar, koinotning yaratilishi haqida turli rivoyatlar, she'rlar, tabiat manzaralari tasviri, madhiyalar hamda falsafiy mushohadalar ham uchraydi.

"Devonu lug'at at-turk" kitobi turkiy tilshunoslikning bizga ma'lum bo'lgan ilk yirik, shuning bilan birga, tengi yo'q buyuk durdona asarlar sirasiga kiradi desak to'g'riroq bo'ladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'at at-turk" asarini arab tili orqali Sharq-u G'arb xalqlariga qadimgi turklarning tili, madaniyati hamda tarixi to'g'risida batafsil ma'lumot beruvchi qomusiy asar deyish mumkin. Asar arabchada "Divanu lug'ati-t-tirki" deb atalgan. Ushbu atamada: divan - "devon"; bu o'rinda "so'zlarning muayyan izchillikdagi to'plami" tushuniladi; Ingat - "so'zlar" degani; uning izohlovchisi bo'lmish ttirki - "turk" ma'nosida bo'lib, o'sha zamondagi turkiy tilni bildiradi. "Divanu lug'ati-t-tirki" ning so'zma-so'z tarjimasini "Turk so'zlari devoni" bo'ladi.

Mahmud Qoshg'ariyning ta'kidlashicha, "Devonu lug'ati-t-turk" asari "oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda" tuzilgan. Unda shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar o'rganib chiqilgan. Asar foydalanuvchilarga qo'laylik tug'dirish uchun sodda hamda lo'nda holda yaratilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar aniq, ravshash tushuntirib berilgan.

Mahmud Qoshg'ariy turkiy fonetika va fonologiyani o'tkir bilimdoni, o'z davrining buyuk fonetistlaridan biri bo'lgan. U arab xatini turkiy tilga birinchilardan bo'lib tatbiq etgan, arab xati asosidagi turkiy yozuvning imlo qoidalarini ishlab chiqqan, uning ilmiy asoslarini bayon etgan qomusiy olimdir. Mahmud Qoshg'ariy tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan yozuv prinsiplari asrlar osha to XX asrning boshlariga qadar aytarli o'zgarishsiz davom etib kelgan. Turkiy tillar tarixida to'qqiz asrdan ortiqroq, davr mobaynida yaratilgan arab yozuvidagi matnchilik amaliyoti ana shu an'anaga tayanadi.

Shuningdek, "Devonu lug'at at-turk" asari turkiy tilshunoslikning tarixiy grammatikasi, shuning bilan birga, qomusiy harakterdagi yodgorligi hamdir. Asarda turkiy tillar ilk bor arab tilshunosligi metodologiyasi doirasida bayon qilingan. Asarning ilmiy qiymati, muallifning yutuqlari shularning o'zi bilan cheklanmaydi. Buyuk olim turkiy

soʻzlarning tuzilishi, tilning oʻziga xosliklarini inobatga olib, lugʻat tuzishning oʻziga yarasha yangi bir usulini ishlab chiqadi. Bunda yondashuvni esa lugʻatchilikdagi katta kashfiyotlardan biridir desak toʻgʻriroq boʻlar edi. Asarning katta yutuqlaridan yana biri, asarda eski turkiy tillarning lugʻat boyligi etnolingvistik, lingvokulturologik, qiyosiy tipologik yunalishlar asosida tadqiq etilishidir.

Mahmud Qoshgʻariy turkiy tillarni ikkiga ajratadi: birinchisi, barcha turkiy qavmlar uchun tushunarli boʻlgan, rasmiy ishlarda va yozma adabiyotda qullanuvchi, oʻtmish yozma til anʼanalarini saqlab kelayotgan yozma-adabiy til, buni muallif “turkcha”, “hokoniya tili” deb ataydi: “Bularning ichida eng ochiq va ravon til hokoniya oʻlkasida yashovchilar tilidir” deb taʼkidlaydi. Lugʻatga asos qilib yozma-adabiy tilda qullanuvchi soʻzlar olingan. Ikkinchisi esa turli turkiy shevalar boʻlib, dialektal leksika ana shu lugʻat qatlami tevaragida, unga chogishtirib boriladi. Shunga koʻra, asar eski turkiy yozma adabiy tilinigina emas, eski turkiy dialektlarni oʻrganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Mahmud Qoshgʻariy turkiy tillarni ilmiy tasniflagan, eski turkiy shevalarni urganib, turkiy tilning yirik, fundamental ilmiy grammatikasini yaratgan birinchi olimdir.[4.]

Shuni alohida eʼtirof etish kerakki, islom dini Markaziy Osiyo yerlariga kirib kelgach, turkiy xalqlar qisqa muddat ichida yangi dinni osonlik bilan oʻzlashtirib olishdi. Turkiy xalqlar orasidan yetuk qomusiy ulamolar yetishib chiqa boshladi. Mintaqada ijtimoiy-madaniy hamda siyosiy hayot faollashdi.

Natijada turkiylarning hokimiyat tepasiga kelishi, boshqa xalqlarning turkiylar bilan yaqin munosabatga kirishlariga olib keldi. Bundan esa mintaqa aholisining tilini, madaniyatini oʻrganishga boʻlgan ehtiyoj sezila boshlandi.

Ana shunday bir sharoitda, Mahmud Qoshgʻariy mavjud holatni teran anglagan holda boshqa xalqlar, xususan arablarning turkiy zabonli xalqlar bilan oson muloqotga kirishish imkoniyatini taqdim etuvchi asarga ehtiyoj borligi his etgan holda “Devonu lugʻot at-turk” asarini yaratishga kirishdi. Chunki, Abbosiylar xalifaligi markazlarida, va boshqa bir qator azaldan arab hamda somoniy xalqlar yashab kelgan oʻlkalarda turkiy oʻlkalarning namoyandalari koʻpayib, turkiy tilga eʼtibor oshgan edi.

Eng asosiysi, Mahmad Qoshgʻariy yashab ijod qilgan oʻsha davrlarda, Movarounnahrda Somoniylar oʻrnini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf boʻla boshlagan edi. Hatto, Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa somoniy xalqlar yashab kelgan, oʻlkalarda turkiy oʻlkalar namoyandalari koʻpayib, turkiy tilga eʼtibor oshib borgan edi. Ana shunday bir sharoitda buyuk asar yaratildi.

“Devonu lugʻatit turk” 1960,1963,1966 yillarda 3 jildda, “Fan” hamda 2017 yilda esa “Gʻofur Gʻulom” nashriyoti tomonidan oʻzbek tilida 488 bet hajmda chop etildi. “Devonu lugʻatit turk”ni oʻsha davrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan turkiy xalqlar hayoti haqidagi qomusiy asar deb atash mumkin. Bu asar ustida tadqiqotlar

olib borgan Fitrat, S. Mutallibov, I. V. Stebleva, V. V. Reshetov, G'.Abdurahmonov, A. Rustamov kabi olimlar Mahmud Qoshg'ariyni qadimgi turkiy tillarni o'rganishga buyuk hissa qo'shgan o'z davrining o'ta bilimdon olimi ekanligini ta'kidlab o'tadilar. Hozirgi zamon jahon ilmiy jamoatchiligi XI asrning buyuk allomasi, ulug' tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyni qiyosiy tilshunoslikning asoschisi, deb tan oladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mahmud Qoshg'ariyning islomdan ilgarigi va ilk islom davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, to'plash va avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari yuksakdir. Uning etnografiya, tarix-jug'rofiya xususidagi keng bilim doirasi, til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati, tadqiq qudrati bugungi kunda ham bizni hayratga soladigan darajada desak mubolag'a bo'lmaydi. "Devonu lug'atit turk"da jamlangan aniq-ravshan ma'lumotlarni VIII-XI asrlar ham turkiy adabiy til va badiiy adabiyotning, ham xalq og'zaki ijodi va turli lahjalarning boy manbai deb baralla ayta olamiz.

Mahmad Qoshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk O'rta asr madaniyatining buyuk arboblardan bo'lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Eng asosiysi "Devonu lug'atit turk" asari eski turkiy tilning, turkiy lug'atchilikning tengi yo'q yodgorligidir. Boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, barcha turkiy tillar lug'atining jamlanmasi yoki umumturkiy til ensiklopediyasi deb aytish ham mumkin.

Ulug' tilshunos olim mazkur asari bilan turkiy leksikografiya ilmining tamal toshini qo'yish bilan bir qatorda, ushbu sohani yuqori pog'onaga olib chiqdi. Qolaversa, Mahmud Qoshg'ariy turkiy tilshunoslik rivojigagina emas, balki Sharq tilshunosligi, xususan, lug'atshunosligiga ham katta hissa qo'shgan olimlardan biri sifatida avlodlar xotirasida abadiy qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'at at-turk. Tarjimon Solih Mutallibov. 1-jild. T., 1960, 44-bet.
2. Qo'lyozmaning faksimil nashrlariga qaralsin: Kafgarli Mahmud. DTvanu Lugati't-Tiirk. Tipkibl - Sim / Facsimile. Anklrl, 1990.
3. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'at at-turk. - T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 3-b
4. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'at at-turk. - T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 4-b.